

NAVOIY VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGI VA HOZIRI HOLATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning-2030 strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarishda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar, samaradorlik va muammolariga e'tibor qaratilgan. Jumladan, Navoiy viloyati qishloq xo'jaligining o'ziga xos jihatlari, muammolari va echimlariga qaratilgan tadqiqotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Navoiy, qishloq xo'jaligi, agrar, sug'orish, ekinlar, diversifikatsiya, monokultura, strategiya, tadqiqotlar, izlanishlar, kolxoz, sovxoz, dehqon, fermer, klaster, paxta, g'alla, chorva, samaradorlik.

СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО И СОВРЕМЕННОЕ ПОЛОЖЕНИЕ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются реформы, эффективность и проблемы аграрного сектора в рамках реализации задач, обозначенных в Стратегии "Узбекистан-2030". В частности, представлены исследования, посвященные особенностям, проблемам и решениям развития сельского хозяйства Навоийской области.

Ключевые слова. Уточнение, сельское хозяйство, аграрный, орошение, сельскохозяйственные культуры, диверсификация, монокультура, стратегия, исследования, колхоз, совхоз, фермер, кластер, хлопок, зерно, животноводство, эффективность.

AGRICULTURE AND THE CURRENT SITUATION OF THE NAVOI REGION

Annotation. This article examines reforms, efficiency, and challenges in the agricultural sector as part of the implementation of the objectives outlined in the "Uzbekistan 2030" Strategy. Specifically, it presents research on the characteristics, challenges, and solutions for agricultural development in the Navoi region.

Keywords: Clarification, agriculture, agricultural, irrigation, crops, diversification, monoculture, strategy, research, collective farm, state farm, farmer, cluster, cotton, grain, livestock, efficiency

Kirish. "Iqtisodiyoti sohasidagi eng muhim vazifalarimizdan yana biri, deydi Prezident Sh.Mirziyoyev, - bu agrar sohasni yanada isloh qilish va modernizatsiyalashdan iborat".[1;155] Darhaqiqat, qishloq xo'jaligi istiqodiyotning eng qadimiy, hech qachon o'z o'rni va ahamiyatini yo'qotmaydigan tayanch tarmoqlaridan biridir.

"O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Prezident qarorida Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadlari belgilab berilgan.

Shu jumladan, 54-maqsadda Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, mahsulotlar etishtirishni ko'apytirish va aholi farovonligini oshirish vazifalari belgilangan.[2]

Metodologiya. Ushbu mavzuni yoritishda tarixiylik, ilmiylik, fanlararo yondashuv metodologiyasidan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qishloq xo'jaligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va moliyalashtirishning samaradorligini oshirish masalalarining nazariyuslubiy asoslari xorijiy olimlardan L.Sfu, S.Fan, L.Chjoular o'z izlanishlarida qishloq xo'jaligining iqtisodiyotda rivojlantirish strategiyasi bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni Xitoy tajribasi asosida tadqiq etishgan bo'lsa [3;68], I.N.Buzdalov Rossiya davlatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish islohotlari to'g'risida [4;;325], I.Sandu qishloq xo'jaligini fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida rivojlantirishning o'ziga xos usullari va uning samaradorligi to'g'risida [5;73], I.G.Ushachev qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati va ularni davlat dasturiga kiritish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan [6;9]. Mahalliy olimlardan A.Abdug'aniyev qishloq xo'jaligi va uning iqtisodiyotdagi roli, ahamiyati va uni samaradorligini oshirish bo'yicha [7;340], G'.X.Qudratov qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida g'allaning oziq-ovqat siyosatida tutgan o'rni va uni etishtirilishi hamda g'allachilikdagi iqtisodiy munasabatlar bo'yicha [8;250], A.M.Jo'rayev mamlakatimizda qishloq xo'jaligi bo'yicha olib borilgan iqtisodiy islohotlar to'g'risida [9;766], qishloq xo'jaligini rivojlantirish, dehqon va fermer xo'jaligilari faoliyatini rejalashtirish bo'yicha R.H.Husanov, R.Do'stmurodov, Q.A Choriyev, N.S Xushmatovlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.[10;49]

Asosiy qism. Tarixan qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarixi ming yillarga borib taqaladi va bir nechta asosiy tarixiy davrlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, Qadimgi davr va o'rta asrlarda O'zbekiston hududida sug'orma dehqonchilik tarixi juda qadimgi ildizlarga ega. Eramizdan avvalgi 3-ming yillikdayoq Amudaryo va Sirdaryo havzalarida, xususan, Xorazm va Zarafshon vohalarida murakkab irrigatsiya inshootlari va kanallar qurilgan. Bu davrda Darg'om kanali kabi qadimiy sug'orish tizimlari o'sha davrdagi muhandislik madaniyatidan dalolat beradi. Aholi sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyatini rivojlantirgan. O'rta asrlarda bug'doy, arpa, sholi, tariq, paxta kabi ekinlar ekilgan. Paxta etishtirish taxminan 2000 yil oldin Xitoy manbalarida ham qayd etilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi agrar munosabatlarda burilish nuqtasi bo'ldi. Paxta yakkahokimligi davrida Imperiya to'qimachilik sanoati uchun xomashyoga ehtiyoj sezardi, shu sababli Turkistonda paxtachilikni kengaytirishga katta e'tibor qaratildi.

Paxta eksportini ta'minlash maqsadida temir yo'llar va paxta tozalash korxonalarini qurildi. Natijada, paxta va oziq-ovqat ekinlari o'rtasidagi muvozanat o'zgara boshladi.

Sovet davrida qishloq xo'jaligi siyosati O'zbekistonning iqtisodiy tuzilishini bir tomonlama rivojlanishiga olib keldi. 1930-yillarning boshlarida qishloq xo'jaligini to'liq kollektivlashtirish majburiy tarzda amalga oshirildi, kolxozlar va sovxozlar tashkil etildi. Markaz tomonidan O'zbekiston butun ittifoqning asosiy paxta bazasiga aylantirildi. Paxta yakkahokimligi (monokulturasini) siyosati olib borildi, bunda ekin maydonlarining katta qismi faqat paxtaga ajratildi.

Buning oqibatida esa Amurdaryo va Sirdaryo suvlarining katta miqdorda paxta dalalariga burilishi Orol dengizining qurishi, tuproq sho'rlanishi va suv resurslari tanqisligi kabi jiddiy ekologik muammolarga olib keldi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida agrar sektorda bozor iqtisodiyotiga o'tish boshlandi. Kolxozlar va sovxozlar "shirkatlar"ga (qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish kooperativlari) aylantirildi, keyinchalik asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida fermer xo'jaliklari paydo bo'ldi. Paxta monokulturasidan voz kechilib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida g'alla, meva va sabzavot etishtirishga o'tildi. Hozirda qishloq xo'jaligi klasterlari tizimi joriy etilmoqda, zamonaviy suv tejovchi va raqamli texnologiyalar faol tatbiq qilinmoqda. Hukumat qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirmoqda.[11]

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, paxtachilik, bug'doy etishtirish va bog'dorchilikka asoslangan, so'nggi yillarda klaster tizimi, innovatsiyalar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tufayli paxtadan diversifikatsiya

52 (tarmoqlanish), meva-sabzavot, chorvachilik, ipakchilikka keng yo'naltirilmoqda, bu esa oziq-ovqat xavfsizligi va eksportni oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi farmoni bilan "2020-2030 yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi.[12] Ushbu strategiya doirasidagi Paxta va g'allachilikda davlat buyurtmasidan voz kechish va bozor tamoyillarini keng qo'llash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishdan to'qayta ishlash va iste'molchiga etkazishgacha bo'lgan to'liq zanjirni qamrab oluvchi vertikal integratsiyalashgan klasterlar tizimi faol rivojlantirish, qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish, "aqlli" sug'orish tizimlari va ilg'or ilmiy yutuqlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish, suv tanqisligi sharoitida sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va suvni tejovchi texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish) kengaytirish, iqtisodiyotning paxta yakkahokimligidan voz kechib, meva-sabzavotchilik, chorvachilik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlarini oshirish orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish kabi asosiy yo'nalishlar belgilab berildi.

Shu o'rinda qishloq xo'jaligi sohasida ko'zga ko'rinayotgan asosiy muammolar haqida ham to'xtalish lozim. Ushbu sohada bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan,

- Suv resurslarining kamayishi va tuproq unumdorligining pasayishi.
- Infrastrukturaning eskirganligi, ayniqsa elektr ta'minoti va irrigatsiya tizimlaridagi muammolar.
- Fermerlarning erdan foydalanish huquqlarini himoya qilishdagi ayrim kamchiliklar shular jumlasidan.

Umuman olganda, O'zbekiston hukumati qishloq xo'jaligini bozor talablariga mos, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan sohaga aylantirish bo'yicha faol siyosat olib bormoqda.

Navoiy viloyatining o'ziga xosligi qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarda ham aks etmoqda. Chunki, mintaqaning o'ziga xos iqlim sharoiti, xususan cho'l va yaylov zonalarining kengligi, suv tanqisligi va tuproq sho'rlanishi muammolari dolzarb hisoblanadi.

Bu borada Navoiy qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi, shuningdek boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari, etakchi olimlar hamkorligida bu sohada tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, chorvachilik va yaylovdan foydalanish, sug'orma dehqonchilik va suv tejovchi texnologiyalar, tuproq unumdorligi va degradatsiyasi, ekinlar diversifikatsiyasi va Yangi navlar, innovatsiyalar va agrara siyosat kabi sohalarda izlanishlar olib borilmoqda. Bunda, katta qismi Qizilqum cho'lida joylashganligi sababli asosan chorvachilikka asoslangan hududlarda tuyachilik, yilqichilik va echkichilikni rivojlantirish, mavjud suvlardan oqilona foydalanish, go'za parvarishida xalqaro texnologiyalardan foydalanish, irrigatsiya tizimlaridan samarali foydalanish kabi masalalarga echim topilmoqda.

Aslini olganda, Navoiy viloyatida qishloq xo'jaligi viloyat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, asosan paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik va so'nggi paytlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan islohotlar bilan tavsiflanadi.

O'tgan yillarda bu sohadagi islohotlar natijasida bir qator ko'rsatgiqlarga erishildi. 2025 yilning birinchi choragida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 foizga o'sish kuzatilgan. 2024 yilda 86,5 ming tonna paxta va 258,1 ming tonna g'alla hosili olingan. G'alladan bo'shagan er maydonlariga takroriy ekinlar ekish ishlari faol amalga oshirilmoqda. Chorva mollari va parrandalar bosh sonining o'sish dinamikasi kuzatilgan.[13]

Xulosa. Tabiiy iqlim sharoiti tufayli suv tanqisligi muammosini bartaraf etish borasida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, 724 km sug'orish tarmoqlarini betonlashtirilib, 10 ta nasos stansiyasi boshqaruvi xususiy sektorga berilgan.

Qishloq xo'jaligida Xitoy-Shinjon texnologiyasi asosida paxta etishtirish kabi samaradorligi yuqori, suv va resurs tejovchi usullar joriy etilgan. Qishloq xo'jaligi sohasi aholi, ayniqsa qishloq aholisining bandligini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida Qishloq xo'jaligi fakulteti faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Umuman olganda, Navoiy viloyatida qishloq xo'jaligi sanoat bilan bir qatorda rivojlanib, mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, texnologiyalarni yangilash va diversifikatsiyalash orqali samaradorlikni oshirishga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyatlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. <https://lex.uz/docs/6600413>
3. Лин Цфу, Цой Фан, Ли Чжоу. Китайское чудо: экономическая реформа, стратегия развития. - М., 2001.
4. Буздалов И.Н. Аграрная реформа в России (концепции, опыт, перспективы). –М., 2000.
5. Санду И.С. Производственные и научно-производственные системы - эффективная форма интеграции науки и производства. –М., 1990.
6. Ушачев И.Г. Научное обеспечение государственных программ развития сельского хозяйства России. - М., 2006.
7. Абдуғаниев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. –Т.: Адабиёт жамғармаси. 2007.
8. Қудратов Ғ.Х. Бозор иқтисодиёти шароитида Ўзбекистон ғаллачилигидаги иқтисодий мунасобатлар. Монография. –Т.: Иқтисод-молия. 2006.
9. Жўраев А.М., Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы –Т.: Узбекистан, 2002.
10. Хусанов Р.Х., Дўстмуродов Р. Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда Андижон тажрибаси // –Т.: Янги аср авлоди. 2008.
11. <https://strategy.uz/index.php?news=1767>
12. <https://lex.uz/docs/4567334>
13. Навоий вилояти қишлоқ хўжалиги бошқармаси статистика маълумотларидан.